

## ANDRE MORUA NOVELLARIDA DIALOGLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Otamurodova Dilafuz Raxmonovna**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
[otamurodovadilafuz@gmail.com](mailto:otamurodovadilafuz@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada dialoglarning mashhur fransuz yozuvchisi Andre Morua novellaridagi ayrim xususiyatlari tahlil qilinadi. Adibning o'z asarlarida ko'proq dialoglarga murojaat qilishi, g'oyani ochib berishda ushbu so'zlardan mohirona foydalanishi uning asarlarining ta'sirchanligini oshirib, keng kitobxonlar orasida sevilib o'qilishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, maqolada dialoglar va va ularning qo'llanilishi tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** novella, dialoglar, qaxramon, adabiyot, voqea, mazmun, davr.

**Abstract.** In this article it is discussed the peculiarities of the dialogues of short stories of French writer Andre Mauro is given. The author in the products pays the big attention to the dialogues uses art details to rise in the short stories sensitivity. Therefore its products have huge popularity among readers/ Besides, in the article the characteristics of short stories of Andre Mauro is studied. Furthermore, different sorts of dialogues and their implementations are analyzed in the article.

**Keywords:** novel, dialogues, hero, literature, event, content, epoch .

**Аннотация.** В данной статье даётся анализ некоторых особенностей диалогов на примере новелл французского писателя Андре Моруа. Автор в своих произведениях уделяет большое внимание использованию диалогов для того чтобы повысить в своих новеллах чувствительность. Поэтому его произведения имеют огромную популярность среди читателей. Также в статье анализируются диалоги и их применения.

**Ключевые слова:** новелла, диалоги, герой, литература, событие, содержание, эпоха.

Hozirgi zamon rivojlanish bosqichida til tadqiqi "til va harakat" (pragmatik jihat)ni o'rganishga, ayniqsa kommunikativ faoliyat sifatida muloqot nazariyasini rivojlantirishga katta e'tibor berilayotgani bilan izohlanadi. Bu sohada bilan rus olimlari I.R.Galperin, L.P.Yakubinskiy, V.I.Maksimov, L.I.Timofeyev, T.G.Vinokur, V.D.Devkin qatorida Sh.Safarov ilmiy izlanish olib borgan.

Tilshunoslarning ushbu sohaga qiziqishi dialog nutqning o'zaro muloqot jarayoni sifatida insoniyat muloqotining eng keng tarqalgan va eng murakkab shakli ekanligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga dialog tilshunos uchun bitmas-tuganmas ilxom manbai ekanligiga qaramasdan, nutq bu o'ziga xos hodisasining murakkab tavsiflash holati juda kam uchraydi.

Adabiy asar nutq hodisasi bo'lib, qismlardan tashkil topgan butunlik, o'zida muayyan-ijodiy holatni aks ettirgan betakror hodisa hisoblanadi. Badiiy asardagi har bir unsur muallifning ijodiy-ruhiy holat mahsuli bo'lganligi sababli asarda birorta ham ortiqcha unsur mavjud emas. Zero asardagi barcha unsurlar hatto kitobxon tomonidan ortiqchadek tuyulganlari ham muallifning ijod onlaridagi asarning ruhiy holatini demakki, asarning mazmun-mohiyatini anglashga xizmat qiladi. Bundan kelib chiqadiki, badiiy asar butunlik, bu butunlikdagi biror-bir unurni asar mazmun-

mohiyatiga putur yetkazmagan holda olib tashlash mumkin emas. Sababi badiiy asarni tashkil qilayotgan unsurlarning bari bir-biri bilan mustahkam aloqada, ayni shu aloqalar asosida butunlik yuzaga keladi. Demak badiiy asarni o'qiyotgan odam, birinchidan, asardagi har bir qismni boshqa qismlar bilan aloqada, ikkinchidan, asarni butun holicha tasavvur eta bilmog'i lozim. O'qishning ijodiy jarayon deb atalishi ham aslida shundan, ya'ni asar qismlarini o'zaro bog'lagan holda yaxlit butunlikni hosil qilishning o'zi ijoddir. Konkret asarning turli o'quvchilar tomonidan turlicha tushunilishining boisi ham bir tomoni shunda – qismlar orasidagi ko'rinmas aloqalarni tiklay olish imkoniyati barcha o'quvchilarda ham birdek emas.

Dialog (yunoncha dialogos - suhbat) – nutq turi; ikki yoki undan ortiq shaxsning bir-biriga qaratilgan nutqidir. [3,162] Dramada xarakterlar va voqealar rivojini ifodalashning asosiy vositasi; nasrda (ba'zan nazmda) badiiy ifoda usuli. Masalan, Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" dostonida Xisrav bilan Farxodning to'qnashuvini dialog vositasida ta'sirli qilib tasvirlaydi. Dialog mustaqil publisistik va falsafiy janr hamdir. Dialog nutq shakllaridan biri bo'lib, unda har bir fikr to'g'ridan-to'g'ri suhbatdoshga qaratilgan bo'ladi. Dialogik nutqning sintaktik qurilishi monologik nutqqa qaraganda sodda tuziladi. Dialog fikrlarning qisqaligi bilan ajralib turadi. Unda suhbatni davom ettirish uchun zarur narsalargina ifodalanadi. Voqealar keng izohlanadi. Shu jihatdan ham dialog monologga o'xshaydi. Dialog buyruq, so'roq va darak gaplardan tashkil topadi.

O'zaro muloqot nazariyasi nuqtai nazaridan dialogni har tomonlama tarkibiy va kommunikativ tuzilishi Andre Morua novellalari misolida dialog namunalari tahlil qilinadi. Andre Morua novellalarining mashhurligi yozuvchining ijodiy usuli asarlar tuzilishida yetakchi o'rinni egallashi bilan izohlanadi. Bu uslub esa o'z navbatida dialoglarga ajoyib funksional vazifa yuklaydi. A.Morua asarlarida dialoglar ustunlik qilib, ba'zan mualliflik qissasini butunlay yo'q qiladi. Shuning uchun asarning konsepsiyasi, eng muhim g'oyasi personajlarning nutqi va niyatlarini tahlil qilish, ya'ni dialoglarning informasion va kommunikativ tuzilishini idrok etish orqali ifodalanadi.

Voqealar taqdimotida xolislikka intilgan Andre Morua namoyish uslubini afzal ko'radi. Mualliflik jihatdan dahlsizlik Andre Moruaning yozuvchi sifatida ijodiy usulining mohiyatidir. [2,7]

Andre Morua novellalarida dialogning kompozision-semantik va kommunikativ-pragmatik tuzilmasi saralangan bo'lib, uning tarkibiy qismlari va dialogning modellari qurilganini ko'rish mumkin. Bundan tashqari novellalardagi ikki kishi o'rtasidagi dialogik nutq, savol-javob, buyruq-javob, xabar-e'tiroz kabi mazmunlarni ifodalab, fikr xususidagi tasdiq yoki inkorni, ziddiyat yoki munozarani bildiradi. Ayrim novellalardagi ko'p kishilik dialoglarda suhbat mavzusi savol-javobdan iborat bo'lmay, o'rtaga tashlangan savol, taklif, da'vat, xabar, dalillar bilan xulosalanadi. Bunda ko'proq dialogik matn tarkibida so'roq olmoshlari, muomala odobiga oid so'z va iboralar, yuklamalar, undovlar, kirish so'zlar keng qo'llanadi. Bunday matndagi gaplar asosan sodda gaplardan tashkil topadi, sodda gaplarning bir tarkibi turlari, to'liqsiz gaplar, so'z-gaplar faol ishlatiladi.

Keng kitobxonlar ommasi orasida ma'lum va mashhur XX asr fransuz adabiyotining buyuk namoyondalaridan biri sanalgan Andre Morua asarlarining adabiyot ixlosmandlari tomonidan ardoqlanib, sevib o'qilishining sababi, ushbu adibning «*hayotni badiiy idrok etish*»ni erta boshlaganida bo'lsa ajab emas. [2,5]

Morua novellarida dialogning kommunikativ faoliyat sifatida namoyon bo'lishi hamda asardagi vazifalarini aniq ko'rsatiladi. Shu bilan birga novellalarda muloqotning kompozision-semantik va kommunikativ-pragmatik tarkibiy qismlarini ko'rish mumkin. Novellalarda qo'llanilgan dialoglarda bog'liqlik kategoriyasining vazifalari bog'liqlik kategoriyasi vazifalaring xususiyatlari aniq ko'rinadi.

Dialog ishtirokchilarining barchalari mazmun yaratuvchi sub'yekt ekan, u holda so'zlovchi yetkazmoqchi bo'lgan (va o'z nazdida yetkazgan) mazmun bilan tinglovchi anglagan mazmun aynan bir narsa bo'lolmaydi. Dialoglarda suhbat jarayonida modal so'zlardan ko'p ishlatilganini kuzatish mumkin, lekin bunday so'zlar borliqdagi narsa-hodisalar, belgi-xususiyatlarini nomlamaydi. Shu bilan birgalikda yordamchi so'zlarga o'xshab sof grammatik ma'no ham ifodalanmaydi. Bunday so'zlar bildiralayotgan axborotga so'zlovchining tasdiq, ishonch, gumon kabi munosabatlarini bildiradi.

Dialoglar dinamikasi va axborot manbai jihatdan xarakteri ularning tarkibiy qismlarining kommunikativ uzluksizlik ko'rsatkichlari sifatida namoyon bo'ladi. Bunda kirish so'zlar ham uslubiy xoslanish xususiyatiga ega. Shuning uchun so'zlovchi o'zi qo'llayotgan nutq uslubiga muvofiq keladiganini tanlab qo'llaydi. Masalan, *oui, absolument, donc, je compte que, également, c'est important que..* kabi kirish so'zlar uslubiy xoslangan so'zlardir. Ulardan shaksiz-shubhasiz *donc, je compte que, également* Morua uslubiga xosdir. Kitobiy uslubga xos bu o'zlar o'z ichki xoslanishga ega: *je compte que, également* – badiiy uslubga xos, *absolument, donc* – publisistik uslubga xosdir. Shuning uchun ham muallif tomonidan ishlatilgan har qaysi kirish so'z o'z o'rnida qo'llay bilangani, bu Moruaning madaniy nutq belgisi sanaladi.

Dialoglarning turlari muloqot jarayoni va uning ishtirokchilarining o'zaro ta'sirining xususiyatlariga qarab bo'lingani: Pragmatik nuqtai nazaridan dialog jarayonida ishtirok etuvchi personajlarning nutqi hodisasini tahlil qilish.

Novellalardagi dialog - bu, birinchi navbatda, ishtirokchilar sonini emas, balki (dia - through) (logos - nutq) nutq orqali muloqot qiluvchilarning o'zaro munosabatlarini, ularning rollari almashinuvini ko'rsatadigan atamasi bo'lib hisoblanadi. [3,125] Shunga ko'ra biz dialog tuzilishini ikki turga ajratamiz:

- kompozision-semantik (ma'no, mazmun, semantik) tuzilma, dialogning semantik qismlarini (tushuncha, yadro, xotima) o'z ichiga oladi;
- nutq akti, nutq oqimi, nutqning o'zaro ta'siri, nutq transaksiyasi, nutq voqeasi, interfaol birliklarni o'z ichiga oladigan, dialog birliklarining funksiyalarini aks ettiruvchi kommunikativ-pragmatik tuzilma.

Badiiy asarda muloqot bo'yicha sheriklarning og'zaki tavsiflari tanishtirishning kommunikativ funksiyasini bajaradi, qahramonlarning xarakteristikalarini replikalarda ochib beriladi. Dialogda kommunikativ hamkorlikning kengayishi asardagi kommunikativ holatlarning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi o'zaro muloqot qilayotganlarning tegishli belgilarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Mana shu o'rinda o'zining durdona asarlari bilan o'zbek adabiyotiga katta hissa qo'shgan, mashhur o'zbek yozuvchilaridan biri Abdulla Qahhorning quyidagi fikrlarini ta'kidlab o'tish lozimdir: "Yozuvchi o'zi his qilmagan narsa to'g'risida yozsa, buni o'qigan o'quvchi ham hech narsani his qilolmaydi. Demak, kuydirish uchun kuyish, ardoqlash uchun ardoqlanish shart. His qilinmasdan yozilgan narsa qog'ozdan qilingan gulga o'xshaydi.

His, ichki dard kishining qalbini yemirib yuboradi. Bunday vaqtda kishi o'zini qayerga qo'yishini bilmaydi, o'zining dardiga boshqalarni sherik qilish, yuragini

bo'shatish xohishi kishiga azob berish darajasiga yetadi. Shu vaqtda qo'l qalamga boradi". [1,18]

Muloqotning tarkibiy zanjiridagi kommunikativ uzluksizlik ko'rsatkichlari – bu suhbatning tematik va axborot bazasi yoki replikalarning axborot markazi bo'lib, ular orqali dialog dinamikasi ta'minlanadi, pragmatik tomondan nutqning o'zaro ta'siri operatorlari (muloqotdagilarning o'zaro ta'sirlari) namoyon bo'ladi.

Andre Morua asarlarida dialogning o'ziga xos rol xususiyatlari uning joylashgan joyiga nisbatan ya'ni novellaning boshida yoki oxirida bo'lishiga qarab shartli ravishda neytral yoki aktiv funksiyalar deb nomlanadigan boshlang'ich yoki yakuniy replikalarda o'z aksini topadi.

Novellalardagi dialoglarda shu narsa ko'zga tashlanadiki, muallif tomonidan dialogik shovqinning tarkibiy elementlari, uning holati va chegaralari, dialogning taksonomiyasi tavsiflanib, badiiy asarda dialog dinamikasi va roli mohirona tavsiflanadi; dialogning kommunikativ-pragmatik va kompozitsion semantik xususiyatlari, dialogning turlari kommunikativ munosabat va ishtirokchilar o'zaro ta'sirining mohiyati jihatdan belgilanadi, sherikning og'zaki belgilanishining funksional yuki badiiy obrazni yaratish vositasi sifatida tahlil qilinadi; novellalar dialoglarida ulanish toifalarining ishlash xususiyatlarini aniqlab, axborot markazining tabiati va dialoglarning dinamikasi yoritiladi.

Morua novellalari kompozitsion-semantik va kommunikativ-pragmatik tuzilmalar elementlarining funksional korrelyatsiyasi va badiiy asarda muloqotning rolini kommunikativ faoliyat sifatida, uning tarkibiy qismlarining semantik-pragmatik uzluksizligi nuqtai nazaridan o'ziga xoslik kasb etadi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. A.Qahhor. "Eng yaxshi hiyla – to'g'rilikdir" Filologiya masalalari. Toshkent – 2007/2 (15)-son, - 45 b.
2. A.Maurois «Nouvelles» Moskva, 1966. - 119 b.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. T. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. – 260 b.